

PENSIYA JAMG'ARMASINING RESURLARINI SAMARALI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBALARNI ROLI

Jo'rayeva Zarina Kuntug'diyevna

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasining magistratura
tinglovchisi*

zjurayeva824@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezis pensiya jamg'armasining resurslarini samarali boshqarish va daromadlarni diversifikatsiya qilish masalalariga bag'ishlangan. Ishda jamg'armalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, investitsion strategiyalarni shakllantirish va risklarni boshqarish mexanizmlari tahlil qilingan. Xalqaro tajribalar asosida samarali boshqaruv usullari va diversifikatsiya strategiyalari ko'rib chiqilib, turli aktivlar orqali barqaror daromad olish, monitoring va nazorat tizimlarini rivojlantirish yo'llari aniqlangan. Shu asosda O'zbekiston sharoitida pensiya jamg'armalarini boshqarish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan: normativ-huquqiy bazani mustahkamlash, professional kadrlar tayyorlash, investitsion portfellarning diversifikatsiyasini ta'minlash va monitoring tizimini kuchaytirish. Natijalar shuni ko'rsatadiki, xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda pensiya jamg'armalarini boshqarish samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va pensiya ta'minotini ishonchli qilish mumkin, bu esa ularning strategik rivojlanishiga amaliy hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: Pensiya jamg'armasi, resurslar boshqaruvi, daromad diversifikatsiyasi, investitsion strategiya, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish, aktiv portfeli, monitoring tizimi, nazorat mexanizmlari, xalqaro tajriba.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, pensiya ta'minoti tizimi har bir davlatning ijtimoiy siyosatida muhim o'rin egallaydi. Aholining qarish sur'ati va demografik o'zgarishlar bu tizimning moliyaviy barqarorligini ta'minlash zaruratini yanada





oshirmoqda. Ayniqsa, mehnatga layoqatsizlik yoki boquvchisini yo'qotgan shaxslarga pensiya tayinlash bilan bog'liq masalalarni hal qilish, hozirgi davrda nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Jahon banki hamda Xalqaro mehnat tashkilotining hisobotlarida qayd etilishicha, dunyo bo'ylab pensiya yoshiga yetgan aholining atigi 68 foizi bu tizimdan foydalana oladi, biroq ko'plab mamlakatlarda pensiya miqdori qarilikdagi ehtiyojlarni to'liq qoplamaydi va qariyalar kambag'allik xavfidan to'liq himoyalanganmagan¹.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining prognozlariga ko'ra, 2035-yilga kelib dunyo bo'ylab keksalar soni sezilarli darajada ortadi. Bu davrga kelib, 65 yoshdan katta insonlar soni 1,1 milliard nafarga yetishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkich global aholining qariyb 13 foizini tashkil etadi. Ushbu demografik o'zgarishlar nafaqat pensiya tizimlariga, balki sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar va iqtisodiy siyosatga ham jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aholining qarishi natijasida budjetga tushadigan bosim ortadi, mehnat resurslari qisqaradi va davlatlar keksalar uchun munosib hayotni ta'minlashga qaratilgan strategiyalarni qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ladi. Shu bois, demografik prognozlar asosida bugundan boshlab pensiya tizimlarini isloh qilish va moliyaviy jihatdan barqaror mexanizmlarni joriy etish global miqyosda dolzarb masalaga aylanmoqda².

O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini chuqur isloh qilish masalasi so'nggi yillarda dolzarb mavzuga aylangan. Xususan, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va pensiya tizimini zamonaviy talablar asosida qayta shakllantirish zarurati yuzaga kelgan. Davlat darajasida mavjud muammolar tan olinib, ularni bartaraf etish yo'lida muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, ishlovchi pensionerlarga pensiyalarni to'liq hajmda to'lash amaliyoti yo'lga qo'yildi, shuningdek, pensiya miqdorini hisoblashda inobatga olinadigan o'rtacha ish haqi miqdorining yuqori chegarasi oshirildi. Shunga qaramay, tizimdagi islohotlar yakuniga yetmagan bo'lib, keyingi

¹ www.worldbank.org – Jahon banki rasmiy veb-sayti

² www.oecd.org – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti rasmiy veb-sayti




bosqichda yanada chuqurroq o'zgarishlar kutilmoqda. Bu borada muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonlaridan "Milliy pensiya tizimini takomillashtirish, ijtimoiy sug'urta tizimini isloh qilish, shuningdek, uch darajali pensiya ta'minoti tizimiga o'tish zarurligi"³ alohida ta'kidlangan.

Pensiya tizimida mavjud muammolarning katta qismi demografik o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq. So'nggi bir necha yil ichida dunyo aholisining tarkibida 60 yoshdan yuqori bo'lganlar soni sezilarli darajada ortib, ularning ulushi 8 foizdan 10 foizgacha yetdi. Mutaxassislar fikricha, keksalar sonidagi bunday o'sish yaqin kelajakda yanada tezlashishi kutilmoqda.

Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini saqlashda demografik omillarning roli har yil o'sib bormoqda. O'zbekiston aholisining 2018-2025-yillarga mo'ljallangan demografik prognozlariga ko'ra, pensiya yoshiga yetgan shaxslarning ulushi oshishi kutilmoqda. Bu esa nafaqat pensiya tizimiga, balki ijtimoiy xavfsizlik va iqtisodiy siyosatga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. 2025-yilga borib, o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 75,5 yoshga yetishi kutilmoqda. Bu holat fuqarolarning pensiyaga chiqish davrini uzaytiradi va har yili pensiyaga chiqishga ariza beruvchilar sonining 300 ming nafarga oshishini prognoz qilishmoqda. Natijada, umumiy aholi tarkibida pensiya yoshidagilarning ulushi 11 foizdan oshishi kutilmoqda. Bu esa pensiya tizimiga bo'lgan moliyaviy talabni sezilarli darajada oshiradi, shuningdek, davlatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosatini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Shu bois, kelgusi yillarda pensiya tizimini moliyaviy jihatdan barqaror saqlash uchun yangi yondashuvlar va strategiyalar zarur bo'ladi⁴. Rivojlangan mamlakatlarda pensiya yoshi har qaysi davlatda turlicha shakllangan (1-rasm):

³ <https://president.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti

⁴ Kasimova G.A., Sa'dullaeva Sh.G'. (2017) "Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish masalalari", Экономика и финансы (Uzbekistan), №10.



1-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda pensiya yoshi⁵

Ushbu rasmdan ko‘rinib turibdiki, ko‘plab mamlakatlarda odamlar nafaqaga chiqqandan keyin o‘rtacha 15 yildan 23 yilgacha umr kechiradi. Bu borada eng uzoq pensiya davri Yaponiyada kuzatilgan bo‘lib, u yerda bu ko‘rsatkich 22,2 yilni tashkil etadi, Fransiya esa bu raqam 19 yil atrofida. Aksincha, AQShda nafaqadagi umr davomiyligi eng past ko‘rsatkichga ega bo‘lib, atigi 16 yilni tashkil qiladi. Norvegiya va Shvetsiyada esa pensiyaga chiqish yoshi nisbatan pastroq – taxminan 61–62 yosh atrofida bo‘lishiga qaramasdan, umr ko‘rish davomiyligi balandligi tufayli u yerdagi fuqarolar ancha uzoq muddat pensiya nafaqasidan foydalana oladilar. Bunga qarama-qarshi ravishda, Buyuk Britaniya, Germaniya va Niderlandiyada pensiyaga chiqish yoshi ancha yuqori belgilangan bo‘lsa-da, umr davomiyligi bilan solishtirilganda, pensiyada o‘tiladigan vaqt nisbatan qisqaroq bo‘lishi mumkin.

Pensiya jamg‘armalari milliy va xalqaro iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi chunki ular fuqarolarning kelajakdagi pensiya ta‘minotini kafolatlash bilan birga, mamlakat moliyaviy tizimining barqarorligiga ham hissa qo‘shadi. Samarali boshqarishning asosiy maqsadi jamg‘arma aktivlarini maksimal darajada oshirish, risklarni kamaytirish va daromadlarni diversifikatsiya qilishdir. Xalqaro tajriba

⁵ The Melbourne Mercer Global Pension Index (2024). Report Highlights. www.mercer.com.au/globalpensionindex ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli pensiya jamg'armalari odatda investitsion strategiyalarni aniq belgilaydi, turli aktivlar portfellarini shakllantiradi va xavf-xatarlarni boshqarish tizimini rivojlantiradi. Misol uchun, Kanada, Niderland va Shvetsiyada pensiya jamg'armalari investitsiyalarni ko'p tarmoqli diversifikatsiyalash orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Ular ichki va tashqi bozor aktivlarini, shu jumladan aksiyalar, obligatsiyalar, ko'chmas mulk va boshqa alternativ investitsiyalarni birlashtirib, risklarni taqsimlaydi. Bundan tashqari, jamg'armalar strategik aktivlarni boshqarish bo'yicha ilg'or texnologiyalar va statistik modellardan foydalanadi, bu esa qaror qabul qilish sifatini oshiradi. Xalqaro tajribada shuningdek, normativ va huquqiy bazaning muhimligi ta'kidlanadi, chunki aniq qoidalar va shaffoflik jamg'armaning samarali faoliyatini ta'minlaydi. Shuningdek, pensiya jamg'armalarini boshqarishda professional kadrlar, mustaqil monitoring va baholash tizimlari katta ahamiyatga ega. Pensiya jamg'armalarini boshqarishda xalqaro tajribalarni quyidagi jadvala batafsil ko'rib chiqamiz (1-jadval):

1-jadval

Pensiya jamg'armalarini boshqarishda xalqaro tajribalar⁶

Mamlakat	Pensiya jamg'armasining nomi	Boshqarish modeli	Investitsion strategiya	Diversifikatsiya usullari	Muhim tajribalar
Kanada	Canada Pension Plan (CPP)	Markazlashtirilgan, professional boshqaruv	Uzoq muddatli aksiyalar va obligatsiyalar	Global aktivlar portfeli, ko'chmas mulk, infrastruktura	Risklarni tarqatish va uzoq muddatli barqaror daromad
Niderland	ABP	Markazlashtirilgan, ko'p tarmoqli boshqaruv	Aksiyalar, obligatsiyalar, ko'chmas mulk	Xalqaro bozorlar va sektorlar bo'yicha diversifikatsiya	Yuqori darajadagi shaffoflik va monitoring tizimi
Shvetsiya	AP-fondlar	Davlat boshqaruvi,	Obligatsiyalar va aksiyalar,	ESG investitsiyalar, global	Barqaror va ijtimoiy javobgar

⁶ Muallif tomonidan tayyorlandi

		professional ekspertlar	ekologik va ijtimoiy omillar hisobga olinadi	portfel diversifikatsi yasi	investitsiyalar tajribasi
Singapur	Central Provident Fund (CPF)	Markazlashgan , elektron monitoring	Mahalliy va xalqaro aksiyalar, obligatsiyalar , ko'chmas mulk	Multi-asset portfel, innovatsion investitsiyala r	Yuksak texnologiya va monitoring tizimi orqali samarali boshqaruv
AQSh	CalPERS	Mustaqil boshqaruv, professional investitsiya jamoasi	Keng qamrovli aksiyalar, obligatsiyalar , xususiy kapital	Diversifikatsi ya va risklarni boshqarish bo'yicha ilg'or metodlar	Strategik investitsiyalar va innovatsion texnologiyalar dan foydalanish

Ushbu jadvalda keltirilgan xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, pensiya jamg'armalarini samarali boshqarishning asosiy omillari, ya'ni professional boshqaruv, investitsion strategiyaning diversifikatsiyalanganligi va shaffof monitoring tizimi hisoblanadi. Masalan, Kanada va Niderland pensiya jamg'armalarida uzoq muddatli aksiyalar va obligatsiyalarni kombinatsiya qilish orqali barqaror daromad ta'minlanadi, shu bilan birga global bozorlar va turli tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiya risklarni kamaytiradi. Shvetsiya va Singapur tajribasida ESG va ijtimoiy javobgar investitsiyalar muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jamg'armalarning nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy samaradorligini oshiradi. AQShning CalPERS jamg'armasi professional investitsiya jamoasi va ilg'or strategik investitsiyalar orqali yuqori daromadni ta'minlaydi. Ushbu tajribalar shuni ko'rsatadiki, samarali boshqaruv faqat aktivlarni ko'p tarmoqli diversifikatsiya qilish bilan cheklanmay, shuningdek, ilg'or monitoring, texnologiyalar va huquqiy asoslarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston sharoitida ham pensiya jamg'armalarining resurslarini diversifikatsiyalash va samarali boshqarish uchun ushbu xalqaro tajribalarni hisobga olish muhimdir. Buning uchun milliy moliya bozorini rivojlantirish, normativ huquqiy bazani kuchaytirish va professional boshqaruv kadrlarini tayyorlash talab etiladi. Shuningdek, innovatsion





investitsiyalar, ko'chmas mulk va boshqa alternativ aktivlar orqali daromadlarni oshirish imkoniyati mavjud. Shu tarzda, xalqaro tajribalar O'zbekiston pensiya jamg'armalarining barqaror va samarali rivojlanishi uchun asosiy strategik yo'nalishlarni belgilab beradi, risklarni kamaytiradi va kelajakdagi moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, pensiya jamg'armasining resurslarini samarali boshqarish masalasi nafaqat milliy moliya tizimining barqarorligini ta'minlashda, balki aholining ijtimoiy himoyasini mustahkamlashda ham muhim o'rin tutadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, pensiya tizimlarini boshqarishda shaffoflik, investitsion diversifikatsiya, raqamli texnologiyalarni joriy etish va davlat-nodavlat sektorlarining hamkorligi asosiy omillar sifatida qaraladi. Masalan, Skandinaviya davlatlarida pensiya jamg'armalari uzoq muddatli investitsiya strategiyasi asosida faoliyat yuritib, nafaqat ishonchli daromad manbaini yaratgan, balki mamlakat iqtisodiyotiga ham sezilarli sarmoya kiritgan. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida pensiya tizimlari boshqaruvida fuqarolarning ishtiroki va jamg'armalarning ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalarga yo'naltirilishi ustuvor hisoblanadi.

O'zbekiston uchun ushbu tajribalar muhim ahamiyatga ega bo'lib, pensiya jamg'armasining resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, pensiya aktivlarini investitsiyaviy jihatdan diversifikatsiya qilish, hamda nazorat tizimini mustahkamlash zarur. Bunda pensiya mablag'larini barqaror moliyaviy instrumentlarga yo'naltirish orqali jamg'arma daromadlarini oshirish imkoniyati mavjud. Shuningdek, pensiya tizimida aholining ishonchini kuchaytirish, ma'lumotlarni ochiqlik tamoyili asosida yuritish va aholiga moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Xalqaro tajribadan kelib chiqib, O'zbekiston pensiya tizimini yanada isloh qilishda davlat kafolatlari bilan bir qatorda xususiy pensiya fondlari faoliyatini rag'batlantirish, ularning faoliyatini qonuniy asosda mustahkamlash va raqobat muhitini shakllantirish orqali resurslardan yanada samarali foydalanish imkoniyatini yaratishi lozim. Shu tarzda, xalqaro yondashuvlarni milliy sharoitga

moslashtirish pensiya jamg'armasi barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi (2005) "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun, O'RQ-208-son, 3-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2024) "Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Farmon, PF-108-son, 12-avgust.
3. Dementev N.P. (2020) "The Pension System in Modern Russia: Reform after Reform...", Problems of Economic Transition, Vol. 62, Issues 11–12, pp. 733–749.
4. Чупрова Е.В. (2017) Пенсионное обеспечение граждан в Российской Федерации, М.: Академия Генеральной прокуратуры РФ.
5. Achilov U. (2022) "O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimi muammolari va hal etish yo'llari", Moliya va bank ishi, 8(4), 42–49.
6. Sirliev Akmaljon (2024) "O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini ekonometrik modellashtirish orqali isloh qilish masalalari", Central Asian Journal of Education and Innovation, 3(5-1), 123-131 b.
7. Kasimova G.A., Sa'dullaeva Sh.G'. (2017) "Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish masalalari", Экономика и финансы (Uzbekistan), №10.
8. www.president.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
9. www.oecd.org – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti rasmiy veb-sayti
10. www.worldbank.org – Jahon banki rasmiy veb-sayti
11. www.mercer.com.au – Mercer kompaniyasining Avstraliya bo'yicha rasmiy veb-sayti